

**МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARNI
ТАРБИЯЛАШДА ОИЛА ВА ТАРБИЯ ТАШКИЛОТ НАМКОРЛИГИ**

Jumayeva Muyassar G`ulomovna

Navoiy viloyat Qiziltepa tumani 7-sonli DMTT Tarbiyachi

Shukrillayeva Shodmongul Fayzillo qizi

Navoiy viloyat G`azg`on shahar 2-sonli DMTT Psixologi

Quvondiqova Oysuluv Isrofilovna

Navoiy viloyat Qiziltepa tumani 7-sonli DMTT Tarbiyachi

Ro`ziyeva Shoxsanam Nor qizi

Navoiy viloyat Karmana tumani 24-sonli DMTT Tarbiyachi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o`yinlar juda katta ahamiyatga ega: ular uchun o`yin - bu o`qish, ular uchun o`yin – bu mehnat, ular uchun o`yin bu jiddiy tarbiya shaklidir.

Kalit so`zi: bolaning, tasavvurlari, haqiqatni, to`ldiradi, Ijodiy o`yinlar, o`yinda amaliy, taassurotlari, borliq, hayotdagi.

Bolalar dunyoqarashini shakllantirishda turli omillar turlicha ta`sir etadi. Bu omillar ichida oila eng asosiysi hisoblanadi. Zero, bolada tasavvur, tushunchalarning shakllanish jarayoni aynan oilada boshlanadi va bu davr dunyoqarashni shakllanishning mazmunini hajm jihatidan eng salmoqli bosqichdir. Shuning uchun ham tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha yoshidagi davri asosiy davr hisoblanadi. Dunyodagi mashhur, komil kishilar (Farobiy, ibn Sino, Amir Temur, Jomiy, Navoiy, Bobur) aynan madaniyat va san`at sohasida ham o`ziga xos salohiyatga ega bo`lganlar. Bizning tarixiy o`tmishimizdan ibratli misollar keltirish mumkin. Shuning uchun ham bolalarda oiladan boshlab dastlabki tasavvur va tushunchalarni shakllantirish, unda ibratli namunalardan ham oqilona foydalanish bo`lajak

ma`naviyatli, madaniyatli, yuqori intellektual salohiyatli insonni tarbiyalashning dastlabki, ayni paytda eng muhim jabhasidir. “Oila jamiyat tizimlari asosida yashasada, oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisadir”. Hozirgi kunda mamlakatimizning kelajagini quradigan, har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonida maktabgacha tarbiya muassalari hamda oilalar hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Maktabgacha tarbiyaning vazifasi bola taraqqiyotini tezlashtirish, uni tezroq o`quvchi qilib qo`yish emas, balki eng avvalo har bir bola o`z imkoniyat va qobiliyatlarini namoyon qilishga sharoit yaratishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolaning bilish jarayoni xususiy amaliy yo`l bilan yuzaga keladi. Har bir bola kichik tadqiqotchi. U faollikni ko`radi, bola faoliyati qanchalik to`la va turli-tuman bo`lsa uning rivojlanishi shunchalik oson kechadi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolaning eng keng tarqalgan faoliyatlari – o`yin, kattalar va tengdoshlari bilan muloqat, predmetli, tasviriy, badiiy teatrlashgan faoliyat, mehnat jarayoniga dasturda katta o`rin berilgan. Aynan shu faoliyatlar jarayonida bolaning aqliy taraqqiyoti, hissiy shaxsiy rivoji yuz beradi, axloqidagi ehtiyotlik, mantiqiy tafakkur o`z-o`zini nazorat qilish, ijodiy tasavvur kabi hislatlar tarkib topadi. Tarbiyachi va murabbiylar ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma`lumotlarini e`tiborga olishlari ham muhimdir, ularga ;muvofiq o`sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo`shadigan hissasi turli yosh bosqichlarida turlicha bo`ladi va to`lqinsimon o`zgaradi. Dastlabki 3 yil ichida u ayniqsa kuchli bo`ladi, shundan keyin oilaviy ta`sirning muayyan darajada barqarorlashuvi davri boshlanadi. Uning navbatdagi cho`qqisi odatda maktabgacha yosh tugaydigan paytga to`g`ri keladi, shundan keyin taxminan o`smirlik davrigacha u zaiflashgandek bo`ladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ma`lumotlari ba`zan shaxsning imkoniyatlari to`g`risidagi barqaror tasavvurlarni o`zgartirib yuboradi. Masalan, ych yoshli shaxslar olimlar bir necha yil muqaddam taxmin qilganlariga nisbatan ancha chuqur idrok etish qobiliyaga ega, uch yoshli shaxs hozir faqat olti yoshli shaxslar qilgan va

qilmagan narsalarni bilishi va qilishi mumkinligi kichkintoyini yurishdan oldin suzishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga o`rganish mumkinligi va hokazolar ma`lum bo`ldi. Vaholanki, tajribaning ko`rsatishicha, ota-onalar ko`pincha o`zlarini tarbiyaviy ishga to`la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota-onalarning bu xususiyatini taniqli pedagog va psixolog K.D.Ushinskiy o`z davrida ta`kidlagan edi. «Tarbiya san`ati, – deb degan edi u, – shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba`zilarga esa juda oson ish bo`lib tuyuladi – odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan kanchalik kam tanish bo`lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo`lib ko`rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e`tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug`ma qobiliyat va malaka, ya`ni ko`nikma kerak, deb o`ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug`ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch xosil qilishgan. Bunday bilimlarniig yo`qligi oilaviy tarbiyada ko`plab xatolarga olib keladi, tarbiyachi otaonalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo`q. Bu jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quyidagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko`rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o`zlari, ishlari haqida kam so`zlab beradilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta`sir ko`rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

2. Bolalarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik. Ona ishga ko`milib ketgan paytda bolalar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo`ladilar.

3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi tarbiya tashkilotining pedagogik kuch-g`ayratini yo`qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta`sirining izchil emasligi axloqiy immunitet hosil bo`lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ta`qiqlashlar sistemasi – ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, bola hayotini u har doim turli xatti-harakatni mashq qiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug`diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. Harakatlarning tarbiya tashkiloti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga ishonchsizlik paydo bo`ladi va o`sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyinlashtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Bola katta bo`lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o`ylash odatda o`zini oqlamaydi, ko`pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi. Ko`rsatib o`tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bo`sh bilishlarini, bolalar ulg`ayishi bilan ularni o`zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik, ota bilan onada talablar birligining, pedagogik odob, chidamning yo`qligi, ota-onalarning turmushning ma`naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo`shish mumkin. Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning kiziqish va intilishlariga mos bo`lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari “Sog`lom avlod uchun”, “Ota-onangga rahmat”, “Odobinga balli”, “Sog` tanda sog`lom aql”, “Mehr chashmasi”, “O`zbekiston Vatanim manim!”, “Sportchi oila”, “Oilamiz ohanglari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Biz kimmiz” kabi tadbirlardan iborat bo`lishi mumkin. Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o`zbekona ta`bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo`yish, yaxshi muallim qo`liga topshirib savodini chiqarish, ilimli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir. Yuqoridagilarning barchasi maktabgacha ta`lim tashkiloti va oila hamkorligining muhim omillardan biri bo`lib hisoblanar ekan, kelajakda yosh avlod tarbiyasi uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

MTT va oila hamkorligini tashkil etishdagi asosiy tamoyillar

Barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona ma`suliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish bugunning eng dolzarb masalasidir. O`zbek milliy qadriyatlari, madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo`yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham makrabbgacha ta`lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Sog`lom muhitni yarata olish oilada oila a`zolarining zukkoligiga bog`liqdir. Ko`p hollarda bir xil yoshdagi bolalarning taraqqiyotida notekislikni ko`rish mumkin. Masalan: bir yoshli bolalarning ba`zilari 10 taga yaqin so`zni ayta oladi. Mustaqil yura oladi. Ayni shu yoshdagi ayrim bolalarning esa mustaqil yura olmasligining guvohi bo`lamiz. Shuningdek, maktabha boruvchi bolalar jismonan baquvvat, sog`lom, fikri teran, tevarak-atrofdagi narsa vahodisalar to`g`risida oddiy mushohada qiladigan ”yaxshi” bilan “yomon”ni, “gunoh” bilan “savob”ni ajrata oladigan bo`ladi. Aynan shu yoshdagi ba`zi bolalarda esa bunga teskari bo`lgan xususiyatlarni uchratish mumkin. Bunday notekislikka sabab kattalarning e`tiborsizligi yoki bola tarbiyasi bo`yicha yetarli bilimga ega bo`lmasligidir.

Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli kattadir. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shunig uchun ham oilada sog`lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umumdavlat ahamiyatiga molik masaladir. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o`zgarishlar, yani undagi kamchiliklar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o`z aksini topadi. Shunga ko`ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muammo bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

“Oila” arabcha so`z bo`lib -bola –chaqa, xonadon; urug`, avlod; -er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug`ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuyi; -xonadon, ma`nolarini bildiradi.

Oila farzandlarning birinchi va eng muhim pedagogidir.

Oila asosiy rivojlantiruvchi muhit hisoblanib, u yerda bolalar quyidagilarga ega bo`ladilar:

- bolaning shu oilaga mansubligi va o`z oilasi bilan aloqadorligi;
- ular yashayotgan jamoaga tegishli bo`lish va ular bilan jips aloqa hissi;
- oziq-ovqat, turar joy, kiyim-kechak va tibbiy yordamni o`z ichiga olgan jismoniy farovonlik;
- hissiy, ijtimoiy, ma`naviy, til va jismoniy farovonlikni o`z ichiga olgan mukammal rivojlanish;
- oila, madaniyat va jamiyat a`zosi sifatida o`zlikni anglash hissi.

1.3. Maktabgacha ta`lim jarayonida oilaning roli va o`rni

Oila va maktabgacha ta`lim o`rtasidagi ijtimoiy munosabat ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega bo`lib har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag`rida mavjud bo`lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog`liqdir. Oila tarbiyalanuvchilar uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo`lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan odob-axloq, iroda, harakter va dunyoqarash shakllanadi. Tarbiyachilar oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma`naviy qiyofasini ko`radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida angelaydi. Oilaviy munosabtlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta`minlab, otaonalarda o`ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Farzandlarning bevosita ta`siri tufayli ularning qiziqish va faoliyat doirasi kengayadi, o`zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o`z umri davomiyligini ko`rish holati ro`y beradi. Shaxsning ma`naviy, axloqiy sifatlarga ega bo`lishi, unda ma`naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo`lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog`lom ma`naviy-ruhiy muhit bolalarning yetuk, barkamol bo`lib voyaga yetishlarida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondashuvlaridagi umumiylik, birbirlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T.: Ma'naviyat, 2017.-86b.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabr O'RQ-637-sonli Qonun//Xalq so'zi.-2020.-24sent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. PF-5198-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – Toshkent: "Adolat", 1998.
6. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori // O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 5-modda. T.: O'zbekiston, 1997. 21b.